

**OLIY TA'LIM TIZIMIDA AXBOROTLAR VA ULARNING MANBALARI  
BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING  
PEDAGOGIK TAHLILI**

*Jo'rayev Mirjalol Qahramanovich*

*Osiyo Xalqaro Universiteti "Umumtexnika" kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya:** Ta'lismizda axborotlardan foydalanish yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ammo talabalarining axborot maydonidagi o'rni va roli yetarlicha o'rganilmagan. Zero, ta'lismiz jarayonining asosiy vazifasi ta'lismiz oluvchilarga zarur axborot yetkazish, ularning o'zlashtirilishiga erishish hamda o'zlashtirilgan axborotlarni qo'llay olishga o'rgatishdir.

**Kalit so'zlar:** fundamental, kommunikasiya, imitatsiya, kompetensiya, material, modeli, komponent.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ПЕРЕДОВОГО  
ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ"  
ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ МАШИНЫ И КАНЦЕЛЯРСКИЕ ТОВАРЫ"**

Джураев Миржалол Геронович. Доцент кафедры" Общетеника "  
Азиатского международного университета.

**Аннотация:** В системе образования целесообразно непрерывное повышение качества и уровня профессионального мастерства педагогических кадров, проведение повышения квалификации и стажировки педагогических и научных работников за рубежом, обучение выпускников высших учебных заведений по программам PhD и магистратуры, широкое привлечение к учебным процессам высококвалифицированных зарубежных ученых, преподавателей и специалистов.

**Ключевые слова:** технология, семинар, интерактивный, методический, материальный, интегральный, компонентный.

**PEDAGOGICAL ANALYSIS OF INNOVATIONS AND ADVANCED  
FOREIGN EXPERIMENTS IN THE TEACHING OF THE SUBJECT "  
ELECTRICAL MACHINES AND PROCEEDINGS.**

Djurayev Mirjalol Qahramanovich. Associate professor of the Department of  
"Department of Allenics", International University of Asia

**Abstract** In the educational system, continuous improvement of the quality and level of professional skills of pedagogical personnel, improvement and internship of

pedagogical and scientific personnel abroad, training of graduates of higher educational institutions in PhD and graduate programs, wide involvement of highly qualified foreign scientists, teachers and specialists in educational processes aimed.

**Key words:** technology, seminar, interactive, methodical, material, integral, component.

Axborotlar ko‘lami kengayib borayotgan hozirgi davr jamiyat a’zolaridan axborotlarni «to‘g‘ridan – to‘g‘ri qabul qilmasdan, tanqidiy va kreativ yondashuv asosida ko‘rib chiqishlari va mantiqiy fikrlash orqali o‘zлari uchun muhim va foydali bo‘lganlarini ajratib olishlarini talab etadi». Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini nazorat qilish, ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullari va yo‘llarini boshqarish qiyinlashib, yosh xususiyatidan qat’iy nazar insonlarga axborotlarning ta’sir (ijobiy yoki salbiy) doirasi ham kengayib bormoqda. Shuning uchun bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatta, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur».

Ta’lim sohasida axborotlar ko‘laming kengligi va tezkor suratlarda o‘sib borishi hamda ular bilan ishlash jarayonida texnik vositalarning tobora keng qo‘llanilayotgani ta’lim oluvchilarda zarur ko‘nikmalarni shakllantirib borishni talab qiladi. Ammo, bu borada umumiy o‘rtta ta’lim maktablari va ta’limning keyingi bosqichlari o‘rtasida ma’lum uzilishlar ko‘zga tashlanadi. Bular: axborotlarni mustaqil o‘zlashtirish uchun zarur axborotlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, mavjud axborotlardan foydalanish asosida zarur axborotni o‘zlashtirib borish, axborotlarni qayta ishlash, axborotlar bazasiga ega bo‘lish, ularni amaliy faoliyatlarda qo‘llay olish jarayonida ko‘rinmoqda. Zero, ta’limning yuqori bosqichlariga o‘tgan sari bu jarayon takomillashib boraveradi va pedagogik jarayonning mazmuniga aylanib boradi. Talabalarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish ushbu jihatdan ham muhim sanaladi.


Axborot manbalari va zaxiralari cheksiz bo‘lib, ta’lim oluvchilarning turli manbalardan tarqatiladigan axborotlarning faol iste’molchisi sifatida ular bilan ishlay olishi muhim hisoblanadi. Axborot manbalardan foydalanish deganda avvalo, ushbu manba va undagi axborotlar to‘g‘risidagi xabardorlik nazarda tutiladi. Ta’lim jarayonida axborot manbalari sifatida ta’lim beruvchi, bosma nashrlar, axborot – kommunikasiya texnologiyalari, ijtimoiy guruhlar qaraladi. Axborot manbalari bilan ishlashga o‘rgatish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Manbalardan zarur axborotlarni qidirib topish, saqlash, interpretatsiya qilish, zarur hollarda ularni qayta ishlash, ulardan foydalanish, tegishli manbalarga joylashtirish, imitatsiyalarini yaratishni ko‘zda tutadi.

Oliy ta’limda o‘quv materiallarining asosiy manbasi bu - darsliklar hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqot ishlarida, ilmiy adabiyotlarda ham talabalarning axborotlar bilan ishlashga o‘rganishda eng muhim manba sifatida darsliklar alohida qayt etib o‘tilgan. Masalan, ta’lim jarayonida «axborot iste’moli madaniyati» ni tarbiyalashda darsliklar asosiy manba sifatida ko‘rsatilgan.

Fan sohalari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlariga oid axborotlar bilan ishlay olish ta’lim oluvchilarda axborotlar bilan ishlay olish kompetensiyasining tarkib topganligini talab qiladi. Fan sohalariga oid o‘quv axborotlarida real voqeа-hodisalar va dalillar aks etadi. Fan sohalari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlariga oid axborotlarning ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi muhim. Bu talabalarning fanga oid ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lish va ulardan o‘quv faoliyati davomida axborot sifatida foydalana olish imkonini beradi. Fan va ta’limga oid axborotlar deganda barcha ilmiy-texnik, ilmiy ta’limiy hamda ixtiro va patentlarga oid xujjatlar nazarda tutiladi. Fan va ta’limga oid axborotlarni uzlusiz ta’limga joriy qilishda o‘quvchilar yosh xususiyatiga mosligi, fan tarmog‘iga mansubliliqi, yaxlitligi va hajmi, ulardan foydalana olish imkoniyatlari, axborotning bahosi (iqtisodiy, ijtimoiy, xavfsizlik nuqtai nazaridan qiymatlari) hisobga olinadi.

Talabaning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini fan sohalariga oid bo‘lgan axborotlar bilan ta’minlash fundamental axborotlar zaxirasini yaratish omili sifatida o‘rganilib, bilimlarni tegishli sohalar bo‘yicha yangiliklar bilan muntazam to‘ldirib borish, bugungi kun talabidan kelib chiqib ta’lim jarayonini zarur o‘quv axborotlari bilan ta’minlash modeli shakllantirildi (1-rasm).



**1-rasm. Ta’lim jarayonini o‘quv axborotlari bilan ta’minlash modeli.**

O‘quvchilarning fan sohalari yuzasidan o‘quv axborotlari bilan ishslash kompetensiyasini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, o‘z ichiga fan mazmunini qamrab oladigan fanga oid tayanch tushunchalarga tayanishni taqozo etadi. Tayanch tushunchalar aniqlik ya’ni, aniq voqeа-hodisalar, obektlar mohiyatini ohib berishga xizmat qiladi. Fanga oid tayanch tushunchalarni kiritish, o‘quv axborotlari orqali interpretatsiya qilish, tushunchalar orasidagi umumiy bog‘liqliknini topishga o‘rgatish fanning asosiy maqsadidir.

### **Adabiyotlar ro‘yxati.**

1. B.X.Shaymatov, B.S.Abdullaeyva, M.Q.Jo‘raev, “Elektr mashinalari”, Buxoro: BMTI, 2022 y.-209 b.
2. M.Q.Jo‘rayev, F.J.Xudoynazarov “Elektr mashinalari” fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari Maqola. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190
3. Jo‘rayev M. Q. ”Oliy ta’lim muassasalarining elektr energetika yo‘nalishi talabalariga elektr mashinalari fanini hozirgi kunda o‘qitish tahlili”. Toshkent 2021 1–son 18 bet
4. Jo‘rayev M. Q. “Elektr yuritmalari tezligini rostlash usullari” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Buxoro 2021, № 5 114 bet
5. Development of teaching methods in the field of "electrical machines" using new pedagogical technologies 1Jorayev M. K, 2Husenov D. R, 3Sharopov F.K. International Engineering Journal For Research & Development 584-586 p
6. Jo‘rayev, M. Q., & Xudoynazarov, F. J. (2021). “Elektr mashinalari” fani Taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1184-1190. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190 bet
7. Jurayev Mirjalol Kahramonovich “Software analysis of electric machine science” ISSN:2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022 143P a g
8. Jo‘rayev Mirjalol Qahramonovich “ELEKTR ENERGIYASINI EKSPLUA-TATSIYA QILISHDA TRANSFORMATORLARNING AHAMIYATI” “PEDAGOGS” international research journal **ISSN: 2181-4027\_SJIF: 4.995**
9. Жўраев М.К. Электр юритмалар тезлигини ростлаш усуллари Педагогик маҳорат Илмий-назарий ва методологик журнал Бухоро 2021, №23, 114-118 б,(13.00.02)
10. Jo‘rayev M. Q. Scientific methodical bases of the science of electric machines academicia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137Vol.12,Issue09,September 2022 SJIF 2022=8.252 A peer reviewed journalhttps://www.indianjournals.com
11. Jo‘rayev M. Q. Ilmiy konferensiya “Elektr mashinalari fanini o‘qitish didaktik takomillashtirish jihatlari” INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCESAND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA https://zenodo.org/record/7146065

12. Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya "Elektr mashinalari fani rivojlanish ginezisi va mazmuni" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCES AND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA <https://zenodo.org/record/7146065>
13. Jorayev Mirjalal Kahramonovich OPINIONS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS IN TEACHING THE SCIENCE OF ELECTRIC MACHINES 76-80 British Journal of Global Ecology and Sustainable Development <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/317> ISSN (E): 2754-9291
14. Джураев Мирджалал Каҳрамоновиҷ, Камалов Камал Малик угли «Синхронные машины», инновационные методы в обучении <http://www.ijaretm.com/> ISSN:2349-0012
15. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Jafarov Sobir Talab o'g'li, Nizomov Nozimjon Zafar O'g'li, Kamolov Kamol Malik o'g'li "Qadoqlash sexidagi qo'llanilgan elektr yuritmani boshqarish blokini takomillashtirish orqali maxsulot namligini mo'tadil saqlash" <https://wordlyknowledge.uz/> ISSN : 2181-4341
16. Жўраев М.Қ., Software Analysis of Electric Machine Science, Research Jet Journal of Analysis and Inventions IF-7.6, <https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/414> ISSN 2776-0960
17. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Jafarov Sobir Talab o'g'li "Methodology of teaching experimental work, organization of independent work in technical higher education institutions <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/192>
18. Jo'rayev, M. Q., Rashidov, H. H., & Murodov, A. O. (2023). Texnika oliv ta'lim muassalarida fanlarning amaliy ko'nikmalarni oshirishning qiyosiy tahlillari. Innovative development in educational activities, 2(21), 4–11. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10138064>
19. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Po'latov Bexruz Zafarovich, Ravshanov Abbas Yashin o'g'li, Rashidov Hamrozbek Hayotovich International conference pedagogical reforms and their solutions VOLUME1, ISSUE2, 2024 <https://worldlyjournals.com/index.php/PRS/article/view/860>
20. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Rashidov Hamrozbek Hayotovich "Elektrotexnika va elektronika" fanini o'qitisha zamonaviy pedagogik texnologiyalari tahlili. **ISSN 2181-4341.** VOLUME 8, ISSUE 2, MARCH, 2024 <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/1312>